

**MEVALI BOG‘LARDAGI KALIFORNIYA QALQONDORI BIOLOGIYASI,  
ZARARI VA UCHRASH DARAJASI**

**Raxmonova Madina Kimsanboyevna**

dotsent

**Imomaliyev Erali Nurali o‘g‘li**

magistr

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

**Annotatsiya** Respublikamizda barcha toifa xo‘jaliklarida jami 337 ming gektar bog‘lar va 182 ming gektar uzumzorlar mavjud. Tinimsiz har kuni yog‘ayotgan yomg‘ir gullash fazasiga kirgan o‘rik, shaftoli, bodom bog‘lari hosildorligiga zarar yetkazmaydi. Faqat changlanish muddatini sekinlashtirishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** qalqondor, qalqon, yosh, lichinka, avlod.

**Annotation** The country has 337,000 hectares of orchards and 182,000 hectares of vineyards in all categories of farms. Constant rains do not affect the yield of apricot, peach and almond orchards, which enter the flowering phase every day. This can only slow down the pollination period.

**Key words:** scale insect, scale insect, age, larva, generation

**Kirish.** Hozirgi kunda bog‘dorchilik qishloq xo‘jaligining muhim soxasi hisoblanadi. Axolini meva va meva maxsulotlariga, sanoatni meva xom ashyosiga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Jaxon bog‘dorchiligida 200 dan ortiq meva turlari ekiladi. Respublikamizda esa 20 dan ortiq turi ekiladi. Bulardan o‘rik, shaftoli, olxo‘ri, gilos, olcha, olma, behi, nok asosiy o‘rinni egallaydi. Mevali bog‘lardan yuqori va sifatli xosil olish uchun turli zararkunanda va kasalliklarga qarshi

kurashish dolzarb masala hisoblanadi. Yog‘ingarchilikning foydali tomoni oxirgi 2020-2021 yilda yangi barpo etilgan 88 ming gektar mevali bog‘lar va 75 ming gektar uzumzorlarga tuproqdagi namlik hisobiga ildiz tizimi yaxshi rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, lalmi yerlarda parvarishlanayotgan bog‘larning yer osti suvlarining Mevali bog‘larda hozirgi kunda uchraydigan asosiy zararkunandalardan Sharq mevaxo‘ri, olma mevaxo‘ri, meva kuyalari, Kaliforniya Qalqondori, olma arrakashi, olcha pashshasi kabilar kiradi. Hozirgi kunda respublikamizda ichki karantin obyekti hisoblangan Kaliforniya Qalqondori mevali daraxtlarga kuchli zarar yetkazmoqda.

**Tadqiqot obekti:** Kaliforniya qalqondorining qalqoni yumaloq, anchagina yapaloq, och jigarrang – kul rang tusda bo‘lib, diametri 1,0 – 1,5 mm, ba‘zan 2 mm gacha boradi. Qalqonning chetlari o‘rtasiga qaraganda och tusdadir. Qalqonning o‘rta qismida och jigarrang lichinka terisi bor. Erkagining qanoti bir juft. Yosh lichinkasi oziqlana boshlaganda oqimtir shira chiqaradi. Yupqa qavat bo‘lib turadigan bu shira keyinchalik qalqonga aylanadi. Birinchi yoshda erkak va urg‘ochi lichinkalarini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Ikkinchi yoshdan boshlab erkak lichinkalarining qalqonlari cho‘ziqroq bo‘lib qoladi. Urg‘ochi lichinkalarining qalqonlari esa yumaloq holda qolaveradi. Urg‘ochi zotining rangi limon kabi sariq, shakli noksimon, uzunligi 1,3 mm, ko‘zi, oyog‘i va mo‘ylovi yo‘q. Qalqoni yumaloq, o‘lchami 2mm, bo‘rtgan, rangi qoramtir yoki qo‘ng‘ir, o‘rtasida 2 ta lichinka po‘stining izi bor. Kaliforniya qalqondorining birinchi yoshli va qisman ikkichi yoshli lichinkalari va voyaga yetgan urg‘ochilari qishlaydi, ammo ikki yoshli lichinkalari va voyaga yetgan urg‘ochilari qishda xalok bo‘ladi. Qalqondorlar daraxtlarning shoxlari va qalqonlari ostida qishlaydi. Fevralning oxirlarida uyqudagi lichinka ikkinchi yoshga o‘ta boshlaydi. Lekin qish paytida 20-50% lichinkalar o‘lib ketadi. Daraxtlar ko‘kara boshlashi bilan lichinkalar oziqlanishni boshlaydi va 2 marta po‘st tashlab jinsiy yetuk urg‘ochi va erkak zotlarga aylanadi. Erkak va urg‘ochi zotlarning nisbati o‘rtacha birga-bir to‘g‘ri keladi.

**Tadqiqot natijalari:** Kaliforniya qalqondorining erkaklari qanotli, serharakat bo‘ladi, urg‘ochilari bir joyga yopishib olib, qimirlamay yotadi. Ular yosh lichinkalik

stadiyasida tarqaladi, ular o‘rmlab yuradi yoki shamol, hasharotlar, qushlar vositasi bilan tarqaladi. Lichinkalar keyinchalik biron joyga yopishib olib, harakatlanmaydi.

Ikkinchi avlod uchun urchigan urg‘ochi zot 1 oycha yetilgach, tirik tug‘a boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, lichinkalar ona tanasida tug‘ilishdan oldin tuxumdan ochib chiqqan bo‘ladi. Kamdan – kam hollarda lichinka qalqon ostida onasi tuxum qo‘yganidan keyin chiqadi. Bular ham daraxt bo‘ylab tarqab ketib yangi avlodni boshlab beradi.

Kaliforniya qalqondorining urg‘ochisi 100-200 tacha (janubdagi ba’zi joylarda 500 tacha) lichinka tug‘adi. O‘zbekiston sharoitida kaliforniya qalqondori mavsumda 4-5 ta avlod beradi. Tojikiston va Ozarbayjon sharoitida 4ta avlod beradi. Har qaysi avlod lichinkalaridan bir qismi qishlashga qoladi. Va nihoyat, oxirgi avlodining birinchi yosh lichinkalari maxsus tayyorgarlik ko‘rib, ona qalqoni ostida qishlab qoladi. Ammo, sharoit mavjud bo‘lsa (issiqxona va boshqa xonadonlardagi o‘simliklar) kaliforniya qalqondori yil mobaynida tinmay rivojlanishi mumkin. Kaliforniya qalqondori meva daraxtlariga, rezavor meva, butalarga va manzarali o‘simliklarga zarar yetkazadi. Kaliforniya qalqondori juda ko‘payib ketganda daraxt po‘stlog‘ini yorib yuboradi. Shoxlarni va hatto butun daraxtni quritib qo‘yadi. Mevalardagi shirani so‘rib, to‘q qizil dog‘ tushiradi. Kaliforniya qalqondori yangi o‘tkazilgan daraxtlarga ayniqsa katta zarar yetkazadi. Kaliforniya qalqondori har narsani yeyaveradi. Ular olma va nok daraxtlariga ko‘proq zarar yetkazadi, bundan tashqari, u behi, o‘rik, bodom, yong‘oq, olxo‘ri, tog‘olcha, gilos, olchaga zarar yetkazadi, boshqa juda ko‘p mevali daraxtlar, tok manzarali daraxt va butalarning shirasini so‘radi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. SH.T, Xo‘jayev. O‘simliklarni Zararkunandalardan “Uyg‘unlashgan Ximoya Qilishning Zamonaviy Usul va Vositalari” Toshkent-2015yil.
2. M.T.Arslonov. A.U.Sagdullayev. Sh.K.Aliyev. O.T.Xujayev. X.Z.Ablullayeva. “O‘simliklar karantini zararkunandalari tarqalishining oldini olish”

3. Argangelskaya A.D. Kfauncher vetsovi i pitovok() Turkestana // trudy Turkestanskogo nauchnogo obshchestva, t. 1. – Tashkent –
4. Argangelskaya A.D. – Koksidi Sredney Azii – Tashkent, Komitet nauk – 159s.
5. Muxammadiev B.Q. Xavfli koksidlari va ularga qarshi kurash choralarini. Monografiya, T: 2015
6. Sayfiyev A.X., Qurbanmurodova M.B., Muxammadiev B.Q. Kaliforniya Qalqondori bioekologiyasi. Agroilm, 3[41] son, 2016 yil,

